

HARBIY TA'LIM MUASSASALARI KURSANTLARINING KASBIY FAOLIYATGA ADAPTATSIYASIDA OFITSER-PEDAGOGLARNING O'RNI

Alinazarov Nodirxon Nosirxon o'g'li

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kursantlarning kasbiy faoliyatga adaptatsiyasida ofitser-pedagooglarning o'rni borasida fikr yuritilgan. Kursantlarning o'quv dasturlarini o'zlashtirishida harbiy ta'limgiz tizimidagi yangi o'zgarishlarga odatlantirish bilan bir vaqtida o'quv materiallari bilan mustaqil ravishda ishlashga, o'zini tarbiyalash bo'yicha birlamchi ko'nikmalarni hosil qilishda harbiy ta'limgiz muassasasi professor-o'qituvchilarining tutgan o'rni juda muhimligi ko'rsatilgan.*

Tayanch so'zlar: *oliy harbiy ta'limgiz, harbiy ta'limgiz muassasasi, ofitserlarning kasbiy tayyorgarligi.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston Strategiyasi" kitobida "... Ta'limgiz sohasining yana bir eng asosiy vazifasi bugungi kun uchun zarur bo'lgan yangi avlodni, ilm-fan va o'z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli yoshlarni tarbiyalashdan iboratligi shubhasiz..." , - deb, jamiyat, davlat manfaatlarini himoya qiladigan, zamonaviy va keng tafakkurli yosh avlodni shakllantirish amaliyotiga fan va texnika yutuqlarini keng joriy etish zarurligini ta'kidladi [1].

Darhaqiqat, dunyoning bugungi qiyofasi, siyosati harbiy xizmatchilar o'z xizmat faoliyatiga har doim professional darajada tayyor turishlarini talab qiladi.

Kursantlar o'qishining dastlabki 1-3-semestrlari yangi sharoitlarga moslashish uchun eng murakkab bosqich hisoblanadi. Birinchi bosqichda shaxsga nisbatan talablar sezilarli darajada oshadi, yangi qoidalar, cheklar va taqiqalar soni ko'payadi, yangi muhitga mos holda xattiharakatlar o'zgaradi va yangi odatlar paydo bo'ladi. Shuningdek, kursantlar o'zlari uchun umuman yangi bo'lgan olamga kirishlari, bu yerda nafaqat o'qish, balki harbiy xizmat majburiyati, mas'uliyatni his qilishlari kabilar qo'shiladi. Albatta, o'qish boshida maktab, kollej va akademik litsey talablariga ko'nikkan kursantlarda ushbu qarama-qarshiliklar ayrim qiyinchiliklarni tug'diradi.

Birinchi bosqich kursantlari uchun jamoani tashkil qilish va o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyatining sust rivojlanishi, sezilarli darajada ortib borayotgan ma'lumotlar, yangi bilimlar, xulqqa va intizomga qo'yilayotgan talablar o'rtasidagi ziddiyatlarning paydo bo'lish tendensiyasi mayjud. Muvaffaqiyatli ta'limgiz olish uchun kursantlar ma'ruza mazmunini o'z vaqtida qisqacha yozib olishlari, qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlashlari, seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishlari kerak, bu esa mas'uliyat, mustaqillik, tashabbuskorlik, vaqtini to'g'ri taqsimlash va o'z-o'zini shakllantirish kabi shaxsiy fazilatlarning ahamiyatini oshiradi.

Ta'limgiz-tarbiya jarayonida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining harbiy ta'limgiz muassasalari kursantlari bilan olib borilayotgan tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar davomida ularda xalqimizning boy ma'naviy va madaniy merosini, buyuk sarkardalarimizning harbiy mahoratini, dunyo tan olgan allomalarimizning harbiy sohadagi qarashlarini puxta o'rganish, chuqur anglab yetish va ular bilan faxrlanish sifatlarini shakllantirishga katta e'tibor

qaratilmoqda [2]. Bu esa harbiy-kasbiy adaptatsiyaning intensiv kechishini ta'minlaydi. Adaptatsiyaning osonlashuvi bevosita oliy harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarning tahlil olish sifatini ham ta'minlaydi. Kursantlarning o'quv dasturlarini o'zlashtirishida harbiy ta'lim tizimidagi yangi o'zgarishlarga odatlantirish bilan bir vaqtida o'quv materiallari bilan mustaqil ravishda ishslash, o'zini tarbiyalash bo'yicha birlamchi ko'nikmalarini hosil qilishda harbiy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilarining tutgan o'rni juda muhimdir.

Ofitser-pedagoglarning mashg'ulotlar davomida, mustaqil tayyorgarlik jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanishi, kursantlar bilan ularning mustaqil ishlari natijalarini muhokama qilishi, kelajakdag'i ofitserlarni kasbiy tayyorgarligi samaradorligini yanada oshiradi [3].

Harbiy ta'lim muassassalari o'qituvchilarining yana bir muhim vazifasi kursantlarga ta'lim va tarbiya jarayonida materiallarni o'rganish uchun innovations texnologiyalardan to'g'ri foydalanishni o'rgatishdan iborat. Ular zamonaviy texnik imkoniyatlardan to'laqonli foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi va shaxsning uyg'un ravishda takomillashishiga hissa qo'shishlari kerak. Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish hozirgi vaqtida ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuning uchun barcha ofitser-pedagoglar kursantlarga mustaqil bilim olishlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishni o'rgatishlari muhimdir.

Ofitser-pedagoglar tomonidan kursantlar bilimini qattiq nazorat qilish, fakultetlar boshliqlari va batalon komandirlari bilan doimiy ravishda muloqotda bo'lish, mashg'ulotlarga sustkashlik hamda beparvolik bilan yondashayotgan kursantlar bo'yicha hamkorlikda ishslash yuqori samara beradi. Nazorat shakllaridan oqilona foydalanish, kursantlar bilimi darajasini, uni chuqur egallanganligi va tizimliligini, ularning bilim egallash jarayoniga qiziqishlari, qobiliyatlarini, amaliy vazifalarni hal etishda olingan nazariy bilimlarni qo'llay olish darajasini monitoring qilib borish zarur hollarda o'z vaqtida o'quv jarayoniga tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

Ta'lim va tarbiya jarayonida kursantlarning yangi ta'lim tizimning pedagogik sharoitlari ta'siri ostida pedagogik stress, kuchli qo'rquiv, aqliy zo'riqishlarni yengishlarida harbiy ta'lim muassassalarining ofitser-pedagoglari kursantlarga ko'mak berishlari lozim. Ofitser-pedagoglar kursantlarning hissiy holatini turli uslublar va texnologiyalarni qo'llab, ya'ni individual suhbat, ma'muriy choralar, doimiy monitoring, o'quv guruhida lavozimlarni oqilona taqsimlash, dam olishga vaqt ajratish, qo'llab-quvvatlash, ruhlantirish, talabchanlik va hokazolar orqali samarali boshqarishlari kerak.

Ofitser-pedagoglar tomonidan kursantning noto'g'ri harakatini tanqid qilish konstruktiv, do'stona va murabbiylilik xarakteriga ega bo'lgan holda, dalillar asosida, obyektiv va adolatli bo'lishi kerak. Eng muhimi, ofitser-o'qituvchi kursantning ijobjiy fazilatlari, yutuqlarini o'rinli taqdirlashi lozim, bu salbiy xatti-harakatlarning takrorlanishining oldini olishda yordam beradi [4]. Bunday sharoitlarda kursant ofitser-pedagog yoki komandirning o'ziga ham bo'lajak harbiy mutaxassis, ham shaxs sifatida munosabatda bo'layotganini, xatti-harakatlarini ijobjiy baholayotganini ko'rinishi aniqlangan kamchiliklarni o'zining xohishi va irodasi bilan osongina bartaraf etish mumkinligiga ishonch hosil qiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bu kabi mavzudagi konferensiyalar O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Oliy harbiy ta'lim muassasalarida kelajak ofitser kadrlarini

tayyorlaydigan ofitser-pedagoglar uchun juda dolzarbdir. Kelajakda ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan shaxsni faqat o'zi ijodiy, mustaqil fikrlay oladigan insonlarga ina tarbiyalashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi: -T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 464 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagи "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlар samaradorligini oshirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-3898 Qarori. - B. 1.
3. Богатов, В.А. Роль самостоятельной подготовки курсантов в период адаптации к военному образованию / кв. работа Богатов В.А. - Т., 2018. - 54 с.
4. Satib-Aldiyev A.A. Ofitser-o'qituvchining pedagogik mahorati [Matn]: Darslik / - T.: O'R Qurolli Kuchlari Akademiyasi, 2019. - 264 b.